

## O'ZBEKSTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA KENG TARQALGAN LESHMANIOZ KASALLIGINING UCHRASH TURLARI, TARQALISHI, PROFILAKTIKASI VA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

**Mustanov Javohir Abdusamat o'g'li**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi va  
menejment kafedrasi assistenti: [mustanovjavohir@mail.ru](mailto:mustanovjavohir@mail.ru)

**Aminova Mohinur Normurod qizi**

[aminovamohinur133@gmail.com](mailto:aminovamohinur133@gmail.com)

**Xalilov Davron Baxtiyorovich**

[xalilovdavron2402@gmail.com](mailto:xalilovdavron2402@gmail.com)

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti 2-bosqich  
talabalari:

### **ANNOTATSIYA**

Bugungi kunga kelib leshmanioz kasalligining tarqalib ketganligi dolzarb muommolarga aylanmoqda. Leshmanioz kaalligi bu nima, u qanday kasallikni yuqtiradi, uni qanday turlari mavjud, inson organizmiga yuqganidan keyin qancha vaqtida kasallikni birinchi bosqichini namoyon qiladi va uni inkubatsion davri qancha degan savol tug 'uladi. Bu maqolada quydag'i keltirilgan savollarga javob va unga davo ham topishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Leshmaniya, Turlari, Yuqishi, Inkubatsion davri, Profilaktikasi, Oldini olish choralari, Davolash usullari

**Mavzuning maqsadi:** leshmanioz kasalligining tarqalishini oldini olish va uni davolash.

**Asosiy qism:** Leyshmanioz bu dunyo bo'yicha 98 ta davlatdagi endemik va unitilgan tropik kasallikdir. Butun JSST ning ma'lumotiga ko'ra 350 million odam bu kasallik bilan kasallanishi mumkin. Har yili 14 million odam ushbu kasallik bilan kasallanadi va 2 millionga yaqin yangi kasallik qayd qilinmoqda. Bundan tashqari har yili visseral leyshmanioz bilan 50 mingta o'lim holatlari qayd qilinmoqda. Leyshmanioz- odamlarda va hayvonlarda uchraydigan transmissiv protozoy kasallik bo'lib, ko'zg'atuvchisi leyshmaniyalar hisoblanadi va iskabtopar chivinlar tashuvchi bo'lib, chaqish yo'li bilan yuqtiradilar. O'zbekistonda visseral zoonoz, teri antropozi va zoonoz leyshmaniozi tarqalgan.

Visseral leyshmaniozi: Indiya, Nepal, Bangladesh, Kavkaz orti, O'rtayerdengizi, Janubiy Yevropa, Janubiy Amerika va Afrika davlatlarida tarqalgan. Respublikamizda visseral leyshmanioz kasalligi asosan Namangan va Navoiy viloyatlarida, Farg'ona, Samarqand, Jizzax viloyatlarida sanoqli holatlarda qayd etilmoqda. Bunda asosan 1 dan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanadi.

Kasallik manbai- asosan itlar va bo'ri, tulki va boshqalar bo'lishi mumkin. Visseral leyshmanioz kasalligi shunisi bilan xavfliki, agar o'z vaqtida glyukantim yoki ambizom dori vositalari bilan bemorlar davolanmasa 100% o'lim bilan yakun topishi mumkin. Visseral leyshmaniozning inkubatsion davri 3 haftadan 3 yilgacha, o'rtacha 3 oyni tashkil etadi.

Visseral leyshmanioz (VL)- bu to'satdan tana haroratini 39-40°C ko'tarilishi bilan boshlanib, surunkali kechish bilan xarakterlanadi. Limfold-makrofagal tizimining shikastlanishi, uzoq davom etuvchi isitma, taloq va jigarning kattalashishi, kam qonlik va ikkilamchi immunosupressiya bilan xarakterlanadi.

Ayrim hollarda kasallik asta sekinlik bilan boshlanib, umumiyl xolsizlik, ishtaxaning pasayishi, terining ransizlashishi, toshmalarni paydo bo'lishi va leykopeniya bilan xarakterlanadi. Kasallikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu-jigar va taloqni kattalashishidir. Taxminan 10% bemorlarda jigar sirrozi va portal gipertenziysi kuzatiladi. Kasallikning oxirgi bosqichlarida shishlar paydo bo'lib, xoldan toyish (kaxeksiya) va pigmentni ko'payishi (kala-azar «qora kasallik» deyiladi).

Kasallikni bиринчи аломатлари бoshlanganda shifokorga zудлик билан муроjaat qилиш керак, chunki kasallikni natijasi o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘tkazilgan davolashga bog‘liq.

Maxsus davolash kursidan keyin bemor 1 yil davomida dispanser kuzatuvida bo‘ladi, chunki kasallik qaytalanishi ham mumkin. Agarda davolash kursidan keyin bemorning ahvoli yomonlashsa, qayta davolash kursi o‘tkaziladi.

Teri leyshmanioz kasalligi: O‘rta Osiyo (Turkmaniston, O‘zbekiston) va Kavkaz orti; Afg‘onistanda, Yaqin Sharq va Afrika davlatlarida tarqalgan. Teri leyshmanioz k asalligi turizmni rivojlanishi bilan nafaqat endemik balki boshqa geografik xududlard a ham tez-tez uchramoqda. Endemik o‘choqlar asosan cho‘l xududlardagi qishloq va s hahar chekkalarida uchraydi. Yozgi mavsumiy zararlanish iskaptoparlarni faollik davri bilan aniqlanadi.

### **Teri leyshmanioz kasalligi bilan barcha yoshdagilar kasallanishi mumkin. Inkubatsion davri.**

Asosan 1 va to‘rt haftagacha, ba’zan 1,5 2 oygacha davom etadi. Kasallikdan so‘ng mustahkam immunitet paydo bo‘lib, bir umrga saqlanadi. Kasallik 2 10% qaytaliishi mumkin. Kasallik asosan yozning oxiri va kuz oylarida qayd etiladi.

2. Antroponoz teri leyshmaniozi (sinonimlari: Borovskiy kasalligi, sharq yarasi, k ech yaralanadigan leyshmanioz, Ashxabodd va Qo‘qon yarasi, I tip leyshmanioz, shahar leyshmanioz, Saratov yarasi va boshqalar) o‘tkir nekrotik teri leyshmaniozi, qishloq tipidagi teri leyshmaniozi, «pendinka» pendeboshi, murg‘ob yarasi, afg‘on yarasi, p ashsha xo‘rda va boshqalar. ZTL tabiiy o‘choqli transmissiv zoonoz kasallikdir.

Kasallik asosan iskaptoparlar mavjud bo‘lgan shahar va viloyat shaharlarida qayd etiladi. Mahalliy aholidan ko‘pincha bolalar, chetdan kelganlardan barcha yoshdagilar kasallanadi. Kasallik tarqatuvchilarning faolligi bilan bog‘liq bo‘lib, asosan yoz va kuz mavsumida uchraydi. Infeksiya manbai — bemor odam, ba’zan itlar ham bo‘lishi mumkin. Kasallik aholi zich joylashgan punktlarda ko‘proq uchraydi, chunki kasallik iskabtoparlarni urg‘ochisi-Phlebotomus sergenti orqali odamdan odamga yuqadi. Be mordan qonni so‘rgandan keyin moskitlar 6 8 kunda zararli bo‘ladi. Sog‘odamni iskabtopar chivinlari chaqqanida kasallik yuqadi. Inkubatsion davri 2 3 oy va 1,5 yilgacha

davom etishi mumkin va 2 ta xarakterli belgisi bilan: tananing yuz, qo‘l va oyoqlarid a yaralarni sekin paydo bo‘lishi va teri zoonoz leyshmanioziga nisbatan terida yaralar ni kamligi bilan ajralib turadi.

VL ga quyidagilar laboratoriya tekshiruvidan o‘tishi lozim: Klinik epidemiologik ko‘rsatgichga ega bemorlar (terini xarakterli zararlanishi), ya’ni bemorni teri leyshmaniozi o‘chog‘ida bo‘lganligi, endemik hududlarda va kasallik yuqish mavsumida bo‘lganligiga bog‘liq. Teri leyshmanioz kasalligida bemorlarni kasalxonaga yotqizish klinik ko‘rsatmasiga qarab yotqiziladi. Ayrim hollarda davolashsiz ham bemorlarni tuza lishi mumkin. Kasallangan bemorlarda immunitet mustaxkam qoladi.

### **Leyshmaniozlarni profilaktikasi:**

Majmuaviy chora-tadbirlar-infeksiya manbai, yuqish mexanizmi, tarqatuvchilar va shaxsiy profilaktika choralarini o‘z ichiga oladi. Infeksiya manbaiga qaratilgan choralsa: visseral leyshmaniozda klinik asoratlarni oldini olishda bemorlarni o‘z vaqtida aniqlash va davolashdan iborat. Davolash kasalxonada o‘tkaziladi.

Infeksiya manbai hisoblangan daydi itlarga qarshi veterinariya xizmati tomonidan kurash olib borish. Antraponoz leyshmanioz kasalligini profilaktikasi: Bolalar va mikroorganismalar orasida kasallikni faol aniqlash. Bemorlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri davolash. Past yuqish davrida qaytalanuvchi leyshmaniozlarni erta aniqlash. Moskitlarni zararlanishini kamaytirish uchun kechqurunlari yarani bog‘lab qo‘yish lozim, chunki kasallik odamdan odamga iskaptoparlarning chaqishi orqali yuqadi. Shu bilan birga daydi itlarga qarshi kurash olib borish lozim bo‘ladi.

Iskabtoparlarning ko‘payishiga qarshi olib boradigan chora-tadbirlardan biri bu aholi punktlari hamda xonadonlarda obodonlashtirish ishlarini olib borish. Bundan tashqari iskabtoparlarga qarshi xonadonlarni zaxarli ximikatlar bilan dorilash. Kasallik qayd qilganda xonadonlar ichi va tashqi qismi dorilanadi, hamda qo‘shni xonadonlar ham dorilanadi. O‘tkazilgan dezinseksiyani samarasi iskabtoparlarni dorilashdan oldingi soni va dorilangandan keyingi sonini taqqoslash asosida baholanadi. Endemik tumanlarda shaxsiy profilaktikaga repellentlar, uzoq muddatli ta’sir qiluvchi insektitsidlar bilan ishlov berilgan pashshaxonalarlardan konditsionerlar, elektrik fumigatorlar foydalani

sh maqsadga muvofiqdir. Shuningdek xonadonlar devorlarining pastki qismlarini beto n qoplamlari bilan qoplash, ko‘chalarni asfaltlashtirish, hovlilarni pishiq g‘isht bilan qoplash bilan iskaptoparlarning ko‘payishini oldi olinadi.

**Xulosa:** Leshmanioz kasalligi asosan O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida ya’ni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng miqyosda tarqalib ketgan. Bu kasallikni oldini olish uchun turli xil dori maz vositalaridan foydalanishimiz mumkin ya’ni NurZam dori va maz vositasidan bu maz terini tiklanishi kuchaytiradi va silliqlaydi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Leyshmaniozlar - Yomon yara - Ensiklopediya (avitsenna.uz)
2. LESHMANIOZ KASALLIGINING UCHRASH TURLARI, TARQALISHI, PROFILAKTIKASI VA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI.
3. ЛЕЙШ МАНИОЗЫ - Медицинская энциклопедия - Дикая Правда (dikarka.ru)